

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARIDA KREATIV XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Yarmatov Raximboy Baxramovich
pedagogika fanlari doktori, Professor v.b

To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi
Jizzax Davlat Pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarda kreativ xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish, dars jarayonlariga yangicha o'qitish uslublarini joriy etish, bir xillik, chegaraviy qoliplardan chiqish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish, o'quvchilarning fanga qiziqishlarini yanada orttirish, ularda tarixiy tasavvur va tarixiy tafakkurni shakllantirish xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, metod, stereotip, kompetensiya, tafakkur, noodatiy fikrlash, innovatsiya, integratsiya, Rennensans, axborotlashuv jarayoni, kreativ ta'lim, kreativ kompetensiya.

Annotation

Creativity in this article, formation of creative features in future history teachers and its development, introduction of new teaching methods into lesson processes, homogeneity, breaking out of border patterns methods of reforming established stereotypes, increasing students' interest in science, forming historical imagination and historical thinking in them, thereby achieving high efficiency in Uzbekistan and World history lessons are described in unse.

Keywords: creativity, method, stereotype, competence, thinking, unusual thinking, innovation, integrity, Renaissance, information process, creative education, creative competence.

Аннотация

В данной статье творчество, будущая история формирования творческих качеств у педагогов и его развитие, внедрение новых методов обучения в процессы урока, однородность, выход за границы шаблонов, способы реформирования устоявшихся стереотипов, повышения интереса учащихся к науке, формирования у них исторического воображения и исторического мышления, тем самым достижение высокой эффективности на уроках истории Узбекистана и Мира и unse .

Ключевые слова: творчество, метод, стереотип, компетентность, мышление, нестандартное мышление, Инновации, интеграция, ренессанс, информационный процесс, творческое образование, творческая компетентность.

Bugungi kunda ta'lim tizimining barcha sohalarda jadallik bilan integratsiyalashuv jarayonlari kechayotgan bir paytda, mamalakatimizda ham Yangi O'zbekiston va Uchinchi Rennesans qurish borasida ko'pgina islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, zamonaviy ta'lim tizimi va unga tutash bo'g'inlarda ham. Ta'limni liberallashtirish, uni Jahon ta'lim standartlariga moslash, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash va bu orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalash - bugungi kunning asosiy vazifasiga aylanmoqda. Ilg'or xorij tajribalariga tayangan holda, ta'limning barcha jabhalariga, jumaladan, ijtimoiy-gumanitar fanlarga kreativlikni joriy etish va bu asosda bo'lajak tarix o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish nazarda tutilgan. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kreativ yondashuv asosida tarbiyalash – zamonaviy ta'limning talabi demakdir. Aslida kreativlik o'zi nima? Uning ta'limdagi afzalliklari nimalardan iborat? Kreativlik – ijodiylik (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) - qandaydir yangi betakror narsa yarata olish layoqati, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon; shaxsning yangi g'oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorgarligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati. Shaxs xatti-harakati, faoliyatida kreativlik mavjudligini amaldagi an'anaviy holatlar, tajribalardan farqli o'laroq muammoni yangicha yondashuv asosida, nostandart tarzda yechish yuzasidan mustaqil qaror chiqara bilish iqtidori mavjudligi bilan belgilanadi.[1] Bo'lajak tarix o'qituvchilari kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish kabi jihatlarni o'zida mujassamlashtirishi lozim. Shu bilan birgalikda, bo'lajak tarix o'qituvchilarining o'zini- o'zi rivojlantirishi va o'zini- o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga, kreativ potentsialning bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Kreativlik tushunchasining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan asrning 60-70-yillari pedagogikada kreativlik muammosini o'rganishda keskin burilish yillari bo'ldi. Shu davrda ijodiy izlanuvchan pedagog-navatorlar paydo bo'ldi. Novatorlar erishgan natijalar nafaqat pedagoglarni, balki psixologlarni ham qiziqtirib qo'ydi. Ular kreativlik vauning mexanizmlarini chuqur o'rgandilar, tahlil qildilar. V.V Davidov, I. A Zimnaya, N.V Kuzmina, A. M Matyushkin, Y.A Ponomarev, R.A.Mavlonova rahbarligidagi pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti jamoasi.[2] Bundan tashqari yana ko'pgina olimlar kreativlik mavzusiga

doir o'z ilmiy tadqiqot va izlanishlarini olib borganlar. Xususan, Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va shu o'rinda ta'kidlash joizki, bo'lajak tarix o'qituvchilarida kreativ yondashuv asosida tadqiqotchilik layoqatini tarbiyalashga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Massachusetts Institute of Technology (AQSH), Eastern European Scientific Journal (Germanya), Xitoy pedagogik tadqiqotlar milliy instituti (NIES, Guanjou, Xitoy), Chunang universiteti (Janubiy Koreya), Miyagi universitet (Yaponiya), Sankt-Peterburg, Krosnoyarsk Davlat universitetlari (Rossiya), Astana Davlat universiteti (Qozog'iston) kabi davlatlar va ularning ilmiy kengashlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarning natijalarini ham bevosita ko'rishimiz mumkin.[3] Birgina Ken Robinson tomonidan 2007 yilda tayyorlangan "Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?" nomli videolavhani YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o'qituvchilar kreativlik asoslarini o'rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013 y.) yohud ularning pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv asosida ko'nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar nashrdan chiqmoqda. Ta'lim departamenti tomonidan tayyorlangan videolavhalarga asoslanuvchi noanaviy darslar tashkil etilmoqda (Ali, 2011; Ta'lim departamenti, 2013 y.). O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, Bo'lajak tarix o'qituvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga turtki berish, ta'lim berishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lin kelmoqda. Darhaqiqat, ayrim o'quv mashg'ulotlariga yetishmayotgan omil – ham kreativlik aslida. Bo'lajak tarix o'qituvchilari O'zbekiston va Jahon tarixi darslarida mavzu va boblarga moslagan holda ta'lim jarayoniga kreativlikni tadbiq etishi mumkin. Bunda unga avvalo, kreativ ta'lim va kreativ kompetensiyalar yordam beradi. Kreativ ta'lim va kreativ kompetensiyalarning o'zi nima? yohud bo'lajak tarix o'qituvchilari dars davomida kreativ ta'lim uslublarini qay tarzda vujudga keltira olishi kerak? Kreativ ta'lim – bu ta'lim oluvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga, takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, u ta'lim oluvchidagi yaratuvchanlik, bunyodkorlik qobiliyatlarini o'stirishga xizmat qiladi.[4] Kreativ kompetensiya esa - bu muammolarga yangi yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Har bir inson ma'lum aqliy qobiliyatlarga, fikrlash uslublariga va shaxsiy xususiyatlariga asoslangan kreativlikka ega. Kreativ kompetensiyani maqsadga muvofiq shakllantirishga o'xshashlik va tahlil qilish kabi kreativ texnika va intellektual strategiyalar yordam beradi. Kreativ kompetensiya atamasi birinchi marta amerikalik olim Jozef Chilton Pirsning tadqiqot ishida uchraydi.[5] Bo'lajak tarix o'qituvchilari dars soatlariga kreativ yondashuv asosida, an'anaviylikdan zamonaviylik sari qadam tashlaydilar, yangiliklar yaratish, muammolarini yohud muammoli masalalarga ijodiy berish va uning zamirida orginallik, amaliylik, noodatiy erkinlik, yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan sterotiplarni

isloh qilish, ta'limdagi bir xillik va o'zgarmas qoliplardan voz kechish, o'quvchilarni chegamaslik shu bilan birgalikda ularga tanqidiy vatahliliy fikrlashni o'rgatishi darkor. Masalan, O'zbekiston tarixida 1096-1231 - yillarda yashagan Xorazmshohlar davlatining tarix sahnasidan ketishi, mo'g'ullar bosqini, bu paytda mamlakat ichidagi inqirozi sabablari, boshboshdoqlikka sabab bo'lgan ichki nizolar xususida, sinfga baxs-munozarali savol tashlanadi va bunda o'quvchilarning tarixiy voqealarni tahliliy va tanqidiy munosabat bildira olishlariga imkon yaratib beriladi. Shuningdek, o'quvchilardan ushbu tarixiy jarayon xususida, o'zs prognozlarini aytishiga ham imkon beriladi, bu orqali ular qoliplardan chiqadi va o'zlaridagi tarixiy tafakkurlarini namoyon qiladilar. Bu usulni Jahon tarixi, O'zbekiston tarixidagi boshqa mavzularga moslashtirgan holda ham o'tkazish maqsadga muvofiq sanaladi. Yuqoridagi usullar orqali o'quvchilarning tarix faniga qiziqishi yanada ortadi, dunyoqarashi kengayadi, ularda siyosiy va tarixiy ong shakllanadi. Kreativ xususiyatlar o'qituvchi va o'quvchilarda bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Bo'lajak tarix o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarning kreativ fikrlashlariga erishish, o'quv-bilish faoliyatlarida ijodiy mahsulotlarni yaratishlarini ta'minlashga undash, qanday natijalarga olib kelgan bo'lardi? Xuddi shu holat o'qituvchilar izlayotgan xodisa bo'lmasmidi?[6] deya bejizga ta'kidlamagan edi tadqiqotchi olim Drapeau Patti. Bo'lajak tarix o'qituvchilariga xos bo'lgan kreativlik sifatleri quyidagilar sanaladi: mavzuni mukammal tushuntirib bera olish, mavzuga qo'shimcha tarzda ijodiy yo'nalganlik, mantiqiy fikrlash qobiliyati, eruditsiya (bilag'onlik), taqqoslay olish, boy tasavvurga egalik, ijodiy ta'sirchanlik va tashabbuskorlik, o'z ijodkorligini to'la-to'kis namoyish etish, refleksiya qobiliyati, hissiyotga boylik, 3D xarita, va globuslar bilan ishlay olish va mavzuga moslab o'quvchilarga ham namoyon qilish, tavakkal qila olish qobiliyati, tafakkur tezligiga egalik, ichki sezgining rivojlanganligi, tarixiy ong va tarixiy tafakkur shakllanganligi, qiyoslash kompetenti, o'ziga xos (orginal) g'oyalarni ilgari sura olish qobiliyati, innovatsion qobiliyatga egalik, kommunikativ kompetent ko'nikmasi, yuksak badiiy qadriyatlarga egalik, mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi va boshqalar talab etiladi.

“Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik ko'nikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi “ko'p” degan so'zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasini “o'zgartirish” degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi “noyob” deggan so'zga asoslanadi.
4. Yartuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi, qo'shish degan so'zga asoslanadi. Ta'lim mazmunini, xususan, O'zbekiston va Jahon tarixi darslarida, darslikka qo'shimcha tarzda turli o'quv qo'llanmalari, adabiyot va tarixiy xrestomatiyalarni mavzuni to'ldirish va

boyitish uchun, o'quvchilarga qo'shimcha manbalar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.[7]

Kreativlik yuqumlilik xususiyatiga egadir, kreativ bo'lish uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu jamiiki, bo'lajak tarix o'qituvchilariga taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash bo'lajak ularni dars mashg'ulotlarini mazmunli va qiziqarli tashkil etishiga va o'z ustida tinimsiz ishlashga shu bilan birgalikda noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda, bo'lajak tarix o'qituvchilari nazariya va amaliyot uyg'unligini birlashtirishi, an'anaviy va zamonaviy darslarni bir-biriga muvofiqlashtira olishi, eng asosiy vazifalaridan yana biri esa dars jarayonlarini sifatli va yuqori samaradorlik bilan o'tqazishi lozim. Mazkur vazifalarni to'laqonli bajarishida uning kreativlik xususiyatlari qo'l keladi. Shuningdek, bo'lajak tarix o'qituvchilarida kreativ xususiyatlarni shakllantirish va takomillashtirish orqali ulardagi kasbiy va ilmiy potensial salohiyoti yanada ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika. Ensiklopediya. II jild "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. – T.; 2015 198-b.
2. R.A Mavlonova, N.H. Rahmnqulova, K.O Matnazarova, M.K.Shirinov, S. Hafizov. Umumiy Pedagogika . "Fan va Texnologiya" - T .; 2018.201-b.
3. Nazarova Barno. Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuv asosida tadqiqotchilik layoqatini tarbiyalash. Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozgan diss. – T.; 6-b.
4. J.Xasanboyev, X. To'raqulov, M.Xaydarov, O.Xasanboyeva, N.Usmanov. Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T.; 2009-y. 236-b.
5. Xalq ta'limi jurnali. 4-son –T.; S.Akbarova . Kreativ kompetensiyalar va ularni talabalarda shakllantirish masalalari. 64-b.
6. Drapeau Patti. Sparking students creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria - Virginia , USA : ASCD.2014
7. M.X.To'xtaxo'jayeva tahriri ostida. Pedagogika nazariyasi .OTM uchundarslik. – T.; "Iqtisod-moliya" 2010. – 136-140 bb.